

**«MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION
YONDASHUV ASOSIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH USULLARI»**

Yuldasheva Maxsudaxon Yusubovna

*Asaka pedagogika kolleji uslubchisi,
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisi,*

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida multimediya vositalaridan foydalanish usullari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: multimediya vositalari, maktabgacha ta'lim, innovatsiya.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, tabir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning yaqinda matbuotda e'lon qilingan 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasizdir. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oila, so'ngra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. MTTlarda multimediya texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, texnologiyalarini joriy etish jarayonida bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim jarayonida bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanishi

va barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Demak, biz innovatsion yondashuvni maktabgacha ta'limdan boshlashimiz zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi PQ-4312-sonli Qarorida ham qo'yidagicha belgilab berilgan: Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.



Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.

Darhaqiqat, kelajakda davlatimizni butun dunyoga tanitish va buyuk davlat qurish hozirgi o'sib kelayotgan yoshlar qo'lga o'tadi. Shu sababli, ular yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetmoqlari muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki faqatgina mukammal ta'lim

tizimigina mamlakatimizning kelajagini rivojlantiruvchi, uni gullab yashnashi uchun harakat qiluvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil fikr va mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z kasbini sevadigan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini innovatsion faoliyatga o'tkazishni eng avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tatbiq qilish lozimdir. Chunki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, bolalarni har tomonlama yetuk va ijodkor, vatanni sevuvchi, bilimli va ilmi qilib tarbiyalash albatta maktabgacha ta'lim tashkilotining zimmasiga tushadi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda, ularni maktabga tayyorlashda innovatsion multimediyaga texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rnini innovatsion jarayonlar egallamoqda. Innovatsiya o'z nomi bilan yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Shu boisdan ham ta'lim va tarbiya jarayonida yangiliklarni kiritishning o'rnini beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda multimediyaga texnologiyasidan foydalanishning tub mazmuni, multimediyaga asoslangan kompyuterli ta'lim bo'lgani uchun, birinchi navbatda tahlilni kompyuterning ta'lim jarayoniga kiritib kelishidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga insegratsiyasi ta'lim sohasida nafaqat yangi imkoniyatlarni ochdi, balki o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda yuqori sifatga erishishni ta'minlashni taqqozo etmoqda. Bundan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, bunda, albatta ta'lim sohasida erishilgan boy tajriba, progressiv ilmiy texnik yutuqlar, zamonaviy ta'limiy, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish lozim. Bugungi kunda chuqur bilimga ega, yetuk malakali maktabgacha ta'lim tarbiyachisidan o'quv materiallarini bolalarga yetkazishning eng qullay, ratsional usullarini topishi, bu yo'nalishda ijodiy yondashish bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib topishiga e'tibor qaratilishini talab etadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonini multimediyaga vositalari asosida tashkil etishda alohida ahamiyat berilyapti. Multimediyaga vositalariga birinchi navbatda, elektron darsliklar kompakt disk, video-audio tasmlar, turli taqdimotlar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni o'rganish, texnologiyalarni tatbiq etishda bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga pedagogik va

psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish kabi jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Hozirgi davrda multimediya atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalari ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan: multimediya texnologiyasi; multimediya mahsuloti; multimediya kompyuteri; multimediya dasturi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimediya bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida mantli, tasviriy axborotni tovush va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimediya tasvirli ma'lumot bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. Multimediya kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarini ta'lim-tarbiya jarayonida multimediya texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati juda kattadir. Ta'lim va tarbiya jarayonida multimediyali texnologiyalardan foydalanishda elektron darsliklar, qo'llanmalar va metodik ishlanmalar, taqdimotlardan foydalanish unumli natija beradi. Multimediya vositalari psixologik jihatdan bolalarning faollashuvi, diqqatining barqarorlashishi, bola miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'rganiladigan materialga qiziqishlari va ishtiyoqining ortishi kabi psixologik jihatlarni tashkil etadi. Kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlaridan foydalanishning nazariy masalalari va pedagogik, psixologik jihatlari yangicha texnologik yondoshuvda asoslab berildi. Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha

yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 maydagi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi PQ-4312- sonli Qarori.
2. Sh.Fayzullaev. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya Maktabgacha ta'lim jurnali.T.,2018yil,12-son.
3. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodiev R.R. Axborot texnologiyalari. T.: O'qituvchi